



BOYSUNDAN TOPILGAN KUMUSH TANGALARDAN IBORAT XAZINA HAQIDA

Normo'minov M.B.

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti, Termiz arxeologiya
muzeyi katta ilmiy xodimi

Tel- +998 99 947-58-75 n.mansurbek94@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7462435>

ARTICLE INFO

Received: 10th December 2022

Accepted: 18th December 2022

Online: 20th December 2022

KEY WORDS

Boysun tumani, dirham, Vosit, tanga xazinalar, ummaviylar sulolasi, pul muomalasi, Ummaviy xalifa Hishom, Eski Termiz, numizmatika, oyat, buxorxudot.

Kirish. Shimoli-g'arbiy Toxariston bizga ma'lumki qadimdan muhim strategik hudud sanalgan. Shu sababdan tariximizni qorong'u sahifalarini yoritishda asqotadigan ko'plab arxeologik moddiy manbalar ko'plab uchraydi. Numizmatik ma'lumotlar esa eng to'g'ri va aniq ma'lumotlarni beradi [7,6]. O'z davrining qudratli davlatlaridan sanalgan Sosoniylar Eroni Arab xalifaligi tomonidan zabt etilgach, istilochilarga Movarounnahr tomon yo'l ochildi. Jumladan, 636 yildagi Kadis va 642 yildagi Naxavond to'qnashuvlari [5,6] sosoniylarning besh asrlik saltanatiga barham beradi. O'n yil davomida Eron hududi egallandi. Arab xalifaligi Shimoli-g'arbiy Toxaristonni zabt etgach bu yerda ham xalifalik tangalari muomalad bo'lganli tabiiy. Jumladan dastlabki yillarda xalifalikda Vizantiya va Sosoniylar tomonidan zarb etilgan tangalar savdoda keng ishlatilgan. Vizantiya va Sosoniy hukmdorlari tasviri tushirilgan tangalarga arabcha yozuvlarni qo'shib zarb ettirilgan. Faqat xalifa Abd al-Malik (685-705 yillar) hukmronlik qilgan davrda xalifalik vizantiyaliklar va Sosoniylar

ABSTRACT

Ummaviylar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi va shu bilan birga Shimoli-G'arbiy Toxariston hududida o'ziga xos pul munosabatlarining kirib kelishi yoritiladi. Ushbu tangalarning shu vaqtga qadar ushbu hududdan topilgan tangalar ichida o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

tangasidan farq qiladigan o'ziga xos tangalarini zarb qila boshlaganlar [9,13].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA: Yuqorida takidlab o'tganimizdek yurtimizni tarixini o'rganishda har bir kichik arxeologik moddiy manbaning o'ziga xos o'rne mavjud. Jumladan joriy 2022-yilda bahorida Boysun tumanida Boysun shahridan 4 km sharqda, Boysun shahri va To'da qishloqlari o'rtasidagi, adirlikda, darada joylashgan buloq yaqinidan traktorda yer haydatayotgan fuqaro tomonidan 38.223343, 67.158688 kordinatada bir dona oq rangli qadimiy tanga topib olgani, yer haydash jarayonida birinchi tanga topilgan nuqtadan janubroqda yana 2 dona oq tangaga duch kelganligi haqida xabar olinadi (**1-rasm**). Tezda sathlar muallifi tomonidan ushbu tangalar o'rganish uchun olindi. Shartli tarzda ushbu tangalarga "xazina" nomi beriladi. Tangalar tozalanib o'rganilishi natijasida ushbu tangalar kumushdan zarb qilingan ekanligi ma'lum bo'ladi. Ushbu tangalarni topilgan nuqtasi va ko'rinishiga qarab ikki guruhga (**a** va **b**) ajratish mumkin. **A** guruhidagi bir dona



tanga xalifalik davriga oid dirham ekanligi ma'lum bo'ldi. Tashqi ta'sir natijasida hiyol qiyshaygan ushbu tanga baxtli tasodif tufayli bugungi kungacha juda yaxshi saqlanib qolgan. Odatda tangalar ko'pincha uzoq muddat muomalada yurganligi tufayli siyqalanib yozuvlarini o'qishda qiyinchiliklar yuzaga kelishini hisobga olsak bu tanga yozuvlari yaxshi saqlanib qolganiga qarab ushbu tanga uzoq vaqt muomalada bo'lmagan-deb xulosaga kelishimiz mumkin.

B-1 va **b-2** tangalari o'rganilganida kumushdan zarb qilingan, bir xil bo'lgan ikki dona Buxorxudot tangasi ekanligi aniqlandi. Bu tangalar ham yuqoridagi tanga kabi yozuvlar va tasvirlari juda yaxshi saqlanib qolgani bilan ajralib turadi.

NATIJALAR: Demak tangaga to'xtaladigan bo'lsak. **A** guruhidagi dirham 2.6 sm bo'lgan tanganing umumiy og'irligi 2.71 gramni tashkil etadi. Tangada eng avvalo gardish bo'ylab 3 qatorli aylana chiziq, aylana chiziq tashqi tomonida turli tomonlarida 3 dona, ichida nuqta joylashgan, aylana shakllar mavjud. Tanga markazida, doira chiziq ichida, markazda 3 qatorlik "Kalima"ning bir qismi "**Allohdan boshqa iloh yo'q, u yagona, uning tengi yo'q**" degan yozuvni o'qishimiz mumkin. Bu yozuv atrofida aylana chiziq ichki tarafida doira shaklida soat yo'nalishiga teskari ko'rinishda "**Bismilloh bu dirham Vosit shahrida 732 yilda zarb qilingan**" yozuvini o'qishimiz mumkin. Tanganing teskari tomonida esa tanga markazida aylana bilan doira ichida 4 qatorda Qur'onning 112 surasi keltirib o'tilgan. Ushbu doira yana bir aylanaga olingan bo'lib bu aylanada esa Qur'onning 9-surasi 33-oyati keltirib o'tilgan [3,10]. Bu doira ham aylana chiziq bilan ajratilgan bo'lib chiziq tashqi tomonida tanga gardishigacha besh joyida ichida nuqta bo'lgan aylanalar bilan zarb qilingan. **(2-rasm)**

B-1 va **b-2** tangalariga to'xtaladigan bo'lsak ushbu tangalar VIII asr o'rtalariga oid bo'lgan buxorxudot tangasi ekanligi aniqlandi.

B-1 raqamli tanganing umumiy og'irligi 2.96 gramni tashkil etadi. Hajmi esa 2.5 sm ni tashkil etadi. Tanga aversida markazda shohona bosh kiyim (toj) da hukmdor buxorxudot tasviri mavjud. Tasvirning yuqori qismida arab yozuvida "**Al Mahdi**" yozuvi mavjud. Reversida esa muqadas otashkada va uning yuqori qismida mabudning boshi tasviri mavjud. Otashkada atrofida esa mubbadlar-muqaddas olovni saqlovchi din xizmatchilari tasviri mavjud. **(3-rasm)**

B-2 raqamli tanganing esa umumiy og'irligi 2.79 gramni tashkil etadi. Hajmi esa 2.6 sm ni tashkil etadi. Tanga aversida markazda shohona bosh kiyim (toj) da hukmdor buxorxudot tasviri mavjud. Tasvirning yuqori qismida arab yozuvida "**Al Mahdi**" yozuvi mavjud. Reversida esa muqadas otashkada va uning yuqori qismida mabudning boshi tasviri mavjud. Otashkada atrofida esa mubbadlar-muqaddas olovni saqlovchi din xizmatchilari tasviri mavjud. Revers tomoni biroz siyqalangan. **(4-rasm)**

Buxoroda bunaqangi ko'rinishdagi tangalar Sososniylar davlati hukmdori bo'lgan Varaxran V tangalariga taqlidan tarzda zarb etish yo'lga qo'yiladi. [7,20].

651-yilda arablar Marvni zabt etishganlaridan so'ng bevosita Amudaryodan shimolga real havf sola boshlashdi. Amalda ular bir necha bora Chag'oniyon va So'dga talonchilik yurishlarini olib borishdi va ko'p o'tmay Buxoroning o'zi ham butkul xalifalik tarkibiga kiritiladi. Buxorxudot esa bir qancha shartlar evasiz o'z hukmronligini saqlab qoladi. [4,59]. Ushbu voqealardan boshlab buxorxudotlar kumush tangalaridagi an-anaviy so'g'd bitiklari qisman yoki butkul arab yozuvlariga almashtirilgan holda zarb etish boshlandi. Jumladan xalifa al-Mahdiy (775-785) yoki xalifaning Xurosondagi noibi sanalgan (755-757 yillar) Abu Daul Xolid ibn Ibrohim nomlari bilan zarb etish yo'lga qo'yiladi. [3,33].



MUHOKAMA: Tarixga murojat qiladigan bo'lsak bu tanga (**a-1**) Ummaviy xalifa Hishom (724-743 yillar) davrida [1,29] etilganini bilishimiz mumkin. Shu vaqtga qadar shimoli-g'arbiy Toxariston hududidan ushbu davrga ta'luqli bo'lgan tangalarga e'tibor qaratsak bu davr tangalari deyarli ko'plab uchramaydi. Masalan L.I.Albaum tomonidan Eski Termizdagi Fayoztepa buddaviylik ibodatxonasi yuqori qatlamida aniqlangan. Bu xazina 247 dirhamdan iborat bo'lgan. Tangalar xalifalar Hishom, as-Saffoh, al-Mansur, al-Mahdiy, al-Hodiy, Xorun ar-Rashid, al-Amin, al-Ma'munlar davrida al-Bayda, Vosit, Basra, Kufa, Ray, Muhammadiya, Madinat as-Salom, Zaranj, Balx, Buxoro, Samarqand, Shosh, Marv, Hirot, Rafiq kabi shaharlarda zarb qilingan [8,130]. Keyingi tanga bu Sho'robqo'rg'ondan topilgan mis fulus sanaladi. Akademik E.V.Rtveladze tominidan o'qilgan [6,69] bu tanga ham Ummviy xalifa Xishom davrida Xuroson noyibi Nasr ibn Sayyor tomonidan zarb etilganini keltirib o'tgan.

Ilk Islom davrining ikkinchi yirik tangalar xazinasi 1981 yilda Eski Termizda topilgan. 100 dirhamdan iborat bo'lgan bu

tangalarning aksariyat qismi Balx va Vositda, qolganlari esa Hur, Kufa, Kirmon, Moh, Madinat as-Salom, Muborak kabi shaharlarda zarb qilingan. 96-714/715 yildan 128-745/746 yillar oralig'ida zarb etilgan [8,130]. Eski Termizda qayd etilgan yana bir ummaviylar tangasi ham Balxda 748-749 yilda zarb etilganligi haqida ma'lumotlar [5,38-43] mavjud. **XULOSA:** Agar yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak ushbu yangi tanga (**a-1**) shu vaqtga qadar shimoli—g'arbiy Toxariston hududida uchragan eng qadimgi xalifalik tangalari sirasiga kiritishimiz mumkin ekanligi bilan yaqqol ajralib turadi. Yakka va kichik xazinalar ko'rinishida karvon yo'llari va aholi manzilgohida uchrashi esa VIII asrda umum xalifalik tangalari pul muomalasida asosiy o'rinni egallaganidan darak beradi.

B-1 va **b-2** tangalarining topilishi esa shimoli-g'arbiy Toxaristonda So'g'd (ayniqsa Buxoroda zarb etilgan buxorxudotlar tangalari) juda kamdan kam uchrashi bilan ajralib turadi. Bu bilan siyosiy hayotda bo'layotgan voqealardan qat'iy nazar iqtisodiy va madaniy aloqlar davom etganidan darak beradi.



1-rasm. Tanga topilgan kordinatani Google Earth Pro dasturi orqali yuqoridan ko'rinishi.



2-rasm. A-1 tanganing avers va revers tomonlari



3-rasm. B-1 tanganing avers va revers tomonlari



4-rasm. B-2 tanganing avers va revers tomonlari

References:

1. Босворт К.Э.(1971). Мусульманские династии. Наука
2. Большаков О.Г. (1989). Истрия халифата. Кн 1. Восточная литература
3. Казанцев А.Г. (2006). Исламские монеты VII-XVI веков. Обзор
4. Мухаммад Наршахи (1897). История Бухары. Ташкент
5. Ртвеладзе Э.В. (1985). К истории денежного обращения в Саганиане VIII – начала XIII вв. // ЭВ. XXIII



6. Ртвеладзе Э.В. (2004). Материалы Тохаристанской экспедиции. вып 4
7. Ртвеладзе Э.В. (1987). Древние монеты Средней Азии. Гафур Гулам
8. Ртвеладзе Э.В.(1986). Денежное обращение в Северо-Западном Тохаристане в раннем средневековье. ГОРОДСКАЯ КУЛЬТУРА БАКТРИИ –ТОХАРИСТАНА И СОГДА АНТИЧНОСТЬ, РАННЕЕ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ. Фан.
9. Эрназарова Т, Кочнев Б. (1977). Тангалар ўтмиш даракчилари. Фан